

XITOIY SAYYOHI-ROHIBLARI VA ULARNING G‘ARBG SAYOHATNOMALARI

Xusanov Zuxriddin Mumin o‘g‘li

TDSHU, 1-kurs magistratura talabasi

Tarix (mamlakatlar va mintaqalar) yo‘nalishi.

E-mail: zukhriddinkhusanov@gmail.com

F.Djumaniyozova

Ilmiy rahbar: PhD

Annotatsiya: Xitoy buddist sayyohlari tomonidan bitilgan sayohatnomalarda nafaqat Markaziy Osiyo balki Afg‘oniston yashovchi xalqlarning ilk o‘rta asrlarda diniy e‘tiqodlari va urf-odatlarini o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega. Aslida Xitoy budda rohiblarining G‘arbga sayohatlarining asosiy maqsadi budda dinini boshlanish nuqtasi bo‘lgan Hindistonga borish hisoblangan. Sayohat asosan Xitoydan G‘arbga ya‘ni Markaziy Osiyo, so‘ngra Afg‘oniston orqali borishgan va o‘z sayohatlari davomida duch kelgan xalqlar haqida ma‘lumotlar yozib qoldirganlar.

Kalit so‘zlar: xitoylik rohiblar, buyuk ipak yo‘li, Tyan-shan, Chan’an, buddaviy ibodatxonalar, diplomatik aloqalar, Labnor, yilnomalar.

Abstract: In the travelogues written by Chinese Buddhist monks, not only Central Asia, but also Afghanistan are important for studying the religious beliefs and customs of the peoples living in the early Middle Ages. In fact, the main purpose of Chinese Buddhist monks’ journeys to the West was to go to India, the starting point of Buddhism. They traveled mainly from China to the West, that is, through Central Asia, and then through Afghanistan, and they wrote down information about the peoples they encountered during their travels.

Keywords: Chinese monks, Great Silk Road, Tianshan, Chan’an, Buddhist temples, diplomatic relations, Labnor, chronicles.

Qadim zamonlardan buyon Sharq va G‘arbni, xususan, Xitoy va Yevropani o‘zaro bog‘lab kelgan, ushbu yo‘nalishdagi savdo karvonlari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan “Buyuk ipak yo‘li” haqida ko‘p eshitganmiz. Ammo mazkur savdo yo‘lidan qaysi vaqtdan buyon faol foydalana boshlanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘pchilikni qiziqтира kerak. Manbalarga ko‘ra, “Buyuk ipak yo‘li”ning ochilishida miloddan avvalgi II asrda yashagan xitoylik diplomat va sayyoh Chjan Syanning xizmatlari katta. Aynan, shu xitoy diplomat birinchi bo‘lib Tyan-Shan tog‘lari osha Xitoydan O‘rta Osiyoga sayohat qilgan. Chjan Syanning bosib o‘tgan yo‘lidan Yevropa va Xitoy o‘rtasida qatnaydigan savdo karvonlari keng foydalana boshlagan. Ma‘lumki, Xitoy qadim zamonlardan chetga ko‘plab miqdorda ipak chiqargan va shuning uchun ham keyinchalik bu yo‘l “Buyuk ipak yo‘li” nomini olgan. Chjan Syanning tug‘ilgan sanasi aniq emas, ammo manbalardan bizga uning miloddan avvalgi 103-yilda vafot etgani ma‘lum. Miloddan avvalgi 138yilda Chjan Syan xitoy imperatori U Di (五帝)ning topshirigiga binoan, ko‘chmanchi xunn qabilalariga qarshi kurashda ittifoqchi va hamkorlar topish uchun, muhim diplomatik missiyani amalga oshirish maqsadida Pekindan O‘rta Osiyoga sayohat qilgan. Ushbu sayohati natijasida sayyoh birinchi bo‘lib O‘rta Osiyo, Pomir va Tyan-Shan tog‘lari, Amudaryo va Sirdaryo, Lobnor ko‘liga quyiluvchi Torim daryolari haqidagi ma‘lumotlarni Xitoyga olib kelgan. Tarixchilar beda, uzum, anor, bodring, yong‘oq va boshqa bir qator madaniy o‘simliklarning Xitoy hududiga kirib kelishini ham Chjan Syan nomi bilan bog‘laydilar. Chjan Syanning miloddan avvalgi 138-yilgacha bo‘lgan faoliyati to‘g‘risida ma‘lumotlar juda kam. Ba’zi manbalarga ko‘ra, u Xitoy imperatori saroyida diplomati lavozimni egallagan. O‘sha paytlarda shimoliy chegaralari “Buyuk Xitoy devori”dan o‘tgan Xitoy birmuncha tez rivojlanib, kuchayib borayotgan edi. Tarixchilarning yozishicha, Chjan Syanning sayohatiga qadar xitoyliklar Gobi cho‘li, Tibet va Mo‘g‘iliston o‘rtasidagi Saydam botig‘idan g‘arbg va shimolga deyarli

borishmagan va bu hududlarni deyarli bilishmagan. O‘sha vaqtlarda tabiiy to‘siqlar – cho‘llar, baland tog‘ tizmalari va keng dashtlarda ko‘chib yuruvchi xunlar qabilasi Xitoyning O‘rta Osiyodagi o‘troq xalqlar bilan aloqa o‘rnatishiga harakat qilar edi. Shuning uchun ham xunlarga tegishli yerlardan g‘arbda yashaydigan va Xitoyga ittifoqchi bo‘lishi mumkin bo‘lgan katta yuechjilar (kushonlar)ni qidirib topish maqsadida Chjan Syan elchi sifatida O‘rta Osiyoga yuborilgan. Hozirgi Lanchjou shahridan yo‘lga chiqqan elchilar xunlar hududida xibsga olinib, 10 yil asirlikda saqlangan. Miloddan avvalgi 128-yilda xunlar qo‘lidan qochishga muyassar bo‘lgach, Chjan Syan Markaziy Tyan-Shan tog‘laridan oshib, Jihai 机海 (“Muzlamaydigan ko‘l”, hozirgi Issiqko‘l) ko‘lining janubiy qirg‘oqlaridagi Usun qabilasi yerlariga yetib keldi. Bu yerda Chjan Syanga yuechjilarning janubi-g‘arbga, hozirgi O‘zbekistan hududidagi Farg‘ona vodiysiga ko‘chib joylashganligi ma‘lum bo‘lgan. Ammo xitoy elchisi yuechjilarni Farg‘onadan ham topolmadi, chunki ular yanada uzoqroqqa - Amudaryo va Sirdaryoning o‘rta oqimidagi Baqtriya va Sug‘diyona ko‘chib ketishgan edi. Nihoyat, yuechjilar joylashgan yerni topgach, bu yerda bir yil yashagan Chjan Syan miloddan avvalgi 127-yilning oxirida yana Xitoy tomon yo‘l oldi. U Pomir tog‘larini shimol tomondan aylanib o‘tib, Oloy vodiysi va Torim daryosining bosh irmog‘i bo‘lgan Yuqori Yorkend daryosi orqali Torimning o‘ng irmog‘i Xutan daryosi vodiysiga yetib kelgan. Takla-Makon cho‘lining janubiy chekkalari orqali bir vohadan ikkinchi vohaga o‘tayotib, sayyoh oqmas va ko‘chib yuruvchi Lobnor ko‘li joylashgan pastekislikka duch keladi. Chjan Syanning sayohati Lobnor ko‘lidan Oltintog‘ning shimoliy yonbag‘irlari bo‘ylab davom etgan va bu yerda sayyoh yana xunlar ko‘liga tushib, bir yil vaqtini asirlikda o‘tkazishga majbur bo‘lgan. Bu safar ham qochishga muvaffaq bo‘lgan sayyoh miloddan avvalgi 125-yilda bittagina hamrohi bilan Xitoyga qaytib keldi. Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, Chjan Syan ushbu un uch yillik sayohati davomida 25 ming li (14,2 ming kilometrdan ortiq) masofani bosib o‘tgan. Xitoyga qaytgach, Chjan Syan o‘z sayohati haqida batafsil hisobot tayyorlagan. Hisobot xitoylik tarixchi Sima Syan tomonidan qog‘ozga tushirilib, o‘sha paytdagi Xitoy va boshqa hududlarda O‘rta Osiyo haqidagi geografik bilimlarning tarqalishiga muhim rol

o‘ynagan. Chjan Syan sayohatidan asosiy maqsad xunnlarga qarshi ittifoq tuzish bo‘lsa, keying sayyohlarning asosiy maqsadi buddaviylik dinining Hindistondan Afg‘oniston, Markaziy Osiyo orqali Xitoyga kirib kelishi yo‘lini o‘rganish va bu hududlarda buddaviylikning qay darajada rivojlanganligini o‘rganish bo‘lgan.

Buyuk ipak yo‘li orqali Xitoydan G‘abga safar qilgan birinchi buddaviy olim Chju Sishing (Zhu xi xing 朱熹型) hisoblanadi. Qadimgi Xitoyning ikkinchi poytaxti Loyan shahrida ta’lim oladi. Ana shu davrda u buddizmga oid bo‘lgan va xitoy tiliga tarjima qilingan asarlarni chuqur o‘rganishga kirishadi. Bu orada u xitoy tilidagi tarjima asarlar yetarli emasligini angelaydi. Shu bois 260-yilda Chju Sishing bir necha hamrohlari bilan Chan’an shahrining shimoli- G‘arbida joylashgan Yungjou viloyatidan safarga otlanadi. Chju Sishing Xeshi yo‘lagidan o‘tib Dunxuanga boradi. U yerda biroz to‘xtagach Taklamakon cho‘lining janubidagi yo‘l orqali o‘sha davrda buddizm markazlaridan biriga aylangan Xo‘tan shahriga keladi. Shu yerda u umrining oxirigacha yashab, 80 yoshida olamdan o‘tadi. Uning bu sayohati keyingi Xitoy va budda rohiblari sayohati uchun debocha bo‘ladi. Chjan Syan va Chju Sishingdan keyingi Fa Sian (Fa Xian 法显) bo‘lib, buddist rohib va sayyoh bo‘lib, 399-yildan 414-yilgacha O‘rta Osiyo va Hindistonning katta qismida sayohat qilgan. Uning sayohati Xitoy va Hindiston o‘rtasida doimiy madaniy hamkorlikni boshlagan deb ishoniladi. Xo‘tanda Chju Sishing buddizm asoslarini chuqur o‘rganishga kirishadi. Buning uchun u bir necha yil davomida til o‘rganadi. So‘ngra bu yerdagi olimlar yordamida diniy asarlarni xitoy tiliga tarjima qilish bilan va sharxlash shug‘ullanadi. 382-391-yillarda u birinchi marta o‘zining sharhli tarjimalarini vataniga yuboradi. Uning tarjimalari Xitoyda buddizmning rivojlanishiga katta turtki bo‘ladi. U bir necha yillik sayohatlarini to‘plab, “Buddaviy davlatlarning tavsifi” (“Foguoji” 佛国记) nomli yozuvlarini nashr etdi. Ushbu inshoda diniy tabiatning asosiy mazmuni bilan bir qatorda Markaziy Osiyo va Hindistonning 30 ga yaqin davlatlariga qisqa, ammo juda

ifodali tavsif berilgan⁴⁰. Sung Yun va Xuey Shang bu rohiblarning G‘arbga safari xitoylarning shimolida yashovchi syanbi xalqi tomonidan tashkil etilgan Shimoliy Vey (北魏) davlati (386— 534) davrida sodir bo‘lgan. Ular ana shu xonlik fuqarolari sifatida diniy ziyoratni amalga oshirish bilan birga elchilik vazifasini xam bajarib kelishgan. Ehtimol, shuning uchun xam ularning safari oson va nisbatan kiska muddatda kechgan. Sung Yun va Xuey Sheng bir necha rohiblar hamrohligida 518-yilda 11oyda Sinin shahrining janubi-g‘arbiy tomonidagi Chilin (hozirgi Yueshan) Tog‘laridagi ibodatxonalarining biridan yo‘lga otlangan. Shunda mazkur Tog‘ Shimoliy Vey (北魏) davlatining harbiy chegarasi hisoblanar edi. Ular Dunxuan, Pshamshan, keyingi zamonlarda qum tagida qolib ketgan Uzang-tat (Utsing-tati), Xo‘tan, Karg‘aliq (Yecheng), Toshqo‘rg‘on, Pomirdagi To‘qay dovon (Tegay daban) va Vaxon viloyati kabi joylardan o‘tib Hindistonga borishgan. Bungacha ushbu ikki nafar sayyoh Ida (Yada) davlatining xoni qabulida bo‘lib, unga o‘zlari bilan birga olib kelishgan yorliqni topshirishgan. Shundan keyin Ida davlati bilan Vey davlati o‘rtasida rasmiy aloqalar o‘rnatilgan. 520-yilda Sung Yun va Xuey Shenglar hozirgi Afg‘onistonning sharqiy qismi va Pokistonning Peshovar viloyatida joylashgan Gandxara (Gantolo, Chyantolo) davlatida bo‘lishgan. Ular qoldirgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu mamlakatda buddizm madaniyati yuksak darajada rivojlangan bo‘lib, xonlik poytaxtining yonida uning ramzi xisoblanadigan, balandligi 233 metrga yaqin keladigan katta minora mavjud bo‘lgan. Xitoy sayyohlari Gandxara davlatidagi barcha ziyorat maskanlarini aylanib bo‘lganlaridan so‘ng, kelgan yo‘llari bilan orqaga qaytib, 522-yilda Loyanga yetib kelishgan. Shundan keyin ular ko‘rganlarini yozib qoldirishgan. Ulardan eng mashhuri “Vey Shengning sayohat xotirasi” kabi asarlar shular jumlasidandir. Manbalarga ko‘ra, qaytishda mazkur sayyohlar har xil sovg‘alardan tashqari o‘zlari bilan birga 70 ta buddizmga oid diniy kitoblar olib kelganlar⁴¹. Shuan Zang (玄奘)bu rohib xalq orasida Tangsing (Tan davridagi rohib)

⁴⁰ Хужаев А. Буёк ипак йўли:... 158-159-6

⁴¹ Хужаев А. Буёк ипак йўли:... 161-162-6

deb ham ataladi. Rus adabiyotida Syuan Szan shaklida yozib kelingan. U yoshligining ko‘p qismini Chan’an shahridagi monastirda o‘tkazdi (hozirgi Sian shahri), u yerda 13 yoshida yangi yetakchi sifatida qabul qilindi, chunki u muqaddas matnlarni o‘rganishda noyob qobiliyatlarni namoyon etdi va yigirma yoshida u “sanga” a’zoliciga⁴² to‘liq kirishdi. U uni qiziqtirgan buddaviy matnlarni to‘plash uchun rohib Hindistonga uzoq safarga borishga qaror qildi. U tug‘ilgan shahridan Lanchjou orqali Tan imperiyasining G‘arbiy chegarasiga qarab harakatlana boshlaydi, ya’ni taxminan 90 gradus sharqiy uzunlik bo‘yicha harakat qilishni qaror qildi. Shuanzang ko‘plab buddaviy matnlarni to‘plagan, ularning ba’zilari asl nusxada yo‘qolgan va faqat xitoycha tarjimalarda saqlanib qolgan va Xitoy buddistlar kanoniga - xitoylik Tripitaka deb nomlangan joyga kirgan⁴³. Bundan tashqari, Shuanzang Hindiston va Buddizm tarixini tiklashga yordam beradigan muhim tarixiy dalillarni qoldirdi. 646-yilda imperator Shuanzangning ko‘rsatmasi bilan u “Buyuk Tan sulolasi davrida G‘arbiy o‘lkaga sayohat” (大唐西域西域記) kitobini yakunladi, hozirda u ko‘plab tillarga, shu jumladan rus tiliga tarjima qilingan. Shuanzang sayohati davomida hikoyalar ko‘p afsonalar olib keldi, va keyinchalik sulolasi davrida Ming mashhur romani tomonidan yozilgan “G‘arbga sayohat” hali ham dunyoda mashhur barcha Xitoy adabiyoti, yuqori mumtoz asarlarini kirdi. Shuanzangning bosh suyagi 1956 yilgacha Tyanszin shahridagi Buyuk rahm-shafqat ibodatxonasida yodgorlik sifatida saqlanib kelingan, keyin u Nalanda universitetiga olib borilgan va Hindistonga sovg‘a qilingan. Hozirda Patna muzeyida saqlanmoqda. Shuanzangning bosh suyagining bir qismi Sichuan viloyati Chengdu shahridagi Vensyu monastirida ham saqlanadi.

Yana bir budda dini G‘arbga sayohat qilgan budda rohibi Vu Kung (Wukong 悟空) bo‘lib, uning tug‘ilgan yili noma’lum bo‘lib, u Tan imperiyasi davrida Buyuk ipak yo‘li orqali Hindistonga safar qilgan so‘nggi buddaviy rohib hisoblanadi. U hozirgi

⁴² Budda dinida bu unvon bo‘lib, ma’lum bir darajaga yetganlar shunday nomlangan.

⁴³ Wriggins, Sally (27 November 2003). *The Silk Road Journey With Xuanzang*. New York: Westview (Penguin).

XXRning Ansi viloyatida tavallud topgan. Vu Kung (Wukong 悟空) ning familiyasi Dungshi, ismi Fengchao bo‘lib, u Qadimgi Xitoyning shimolida va kelib chiqishi turkiylarga aloqador bo‘lgan ko‘chmanchi xalqlardan biri syanbi (syangi)larning “toba” urug‘iga mansub edi. Xitoy manbalarida ko‘rsatilishicha, u bolalik davrida buddizm ibodatxonalarida tahsil olgan. Balog‘atga yetgandan keyin Tan sulolasi xonadonida xizmat qilgan. 750-yilda Tan imperiyasining ko‘shinlari arab qo‘shinlari bilan Tolas daryosi Bo‘ylarida jang qilayotgan bir davrda Kashmirda joylashgan bir davlatdan elchilar keladi. Elchilar ketayotganda Tan xoqoni Shyuanzung (712— 756) Chjang Taoguang boshchiligida 40 nafar kishini ularga qo‘shib yuboradi. Vu Kung (Wukong 悟空) ham ana shular qatoridan joy oladi. Kashmirga borishda xitoy elchilari Taklamakon cho‘lining shimoliy tomonidan aylanib o‘tib, Pomir orqali o‘tadigan yo‘ldan yurishadi. Ular 753-yili Jyantolo shahriga yetib kelishadi. Qaytish arafasida Vu Kung (Wukong 悟空) og‘ir xastalanib, sheriklaridan ajrab qolishga majbur bo‘ladi. Kasali tuzalguncha u budda ibodatxonalarida yashaydi. Salomatligi bir oz yaxshilangandan so‘ng, Vu Kung (Wukong 悟空) Kashmirdan yo‘lga chiqib, Toxariston, Vaxon orqali kelishda yurgan yo‘li bilan Kucharga kelib oladi. Ma’lum bir davr davomida u Kucharda yashab, Urumchi yonidagi Jimusa shahriga kelib, ancha vaqt shu yerda kolib ketadi. Chunki bu paytda ushbu shahar yirik buddaviy markazlardan biriga aylangan edi. Jimusadan Chan’anga Vu Kung (Wukong 悟空) 789-yilda qaytib keladi. Qirq sakkiz yil davomida Vu Kung (Wukong 悟空) elchi yordamchisi sifatida Chan’andan chikib ketib, buddizm rohibi bo‘lib qaytib kelgan bo‘lsa ham, u borgan joyining siyosiy-iqtisodiy, madaniy va etnik vaziyatini chuqur o‘rganib chiqadi. Qaytib kelgandan so‘ng bu haqidagi xotiralarini topshiradi. Evaziga u xoqondan katta mukofot bilan xarbiy unvon oladi.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy tomonidan G‘arbga qadim zamonlardan to hozirgi kungacha qiziqishda bo‘lgan. Bu qiziqishlar o‘z navbatida Xitoydan G‘arbga turli xil

savdogarlar, elchilar yuborilib, ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik va madaniy aloqalarni yaratishga doim urinib kelishgan. Chjan Syan (张襄, Chju Sishing (Zhu xi xing 朱熹型), Fa Syan (法显), Sun Yun, Xuey Shang, Shuang Zang (玄奘), Vu Kung (悟空) kabi rohib sayyohlar tashrif buyurishadi va qimmatli sayohatnomalar yozib qoldiradi. Bunda Chjan Syanning maqsadi diplomatik aloqa o‘rnatish bo‘lsa, Shuang Zangning maqsadi ham diplomatic aloqa o‘rnatish va mamlakatda buddizmning o‘rni qay darajada ekanligini o‘rganish bo‘lgan. Qolgan barcha Fa Syan, Sun Yun, Xuey Shang, Vu Kunglarning asosiy maqsadi buddaviylikning vatani Hindistonga borish bo‘lgan va ular yo‘llardagi davlatlarni ijtimoiy-hayotini aks ettiradi⁴⁴.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)

1. A.Xodjaev Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007. Wriggins, Sally (27 November 2003). The Silk Road Journey With Xuanzang. New York: Westview (Penguin).
2. Stephen Gosch; Peter Stearns (12 December 2007). Premodern Travel in World History. Routledge. pp. 89–92.
3. Н.В. Александрова. Сюань Цзан. Записки о западных странах (эпохи) Великой Тан (Да Тан Си Юй Цзи). Восточная литература, 2012.
4. Yiping Zhang Story of the Silk Road. 五洲传播出版社 (wu zhou chuan bo chu ban shi) 2005 p. 22
5. Wriggins, Sally (27 November 2003). The Silk Road Journey With Xuanzang. New York: Westview (Penguin).

⁴⁴ Yiping Zhang Story of the Silk Road. 五洲传播出版社 (wu zhou chuan bo chu ban shi) 2005 p. 22